ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

ITALYAN VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SOMATIK IBORALARNING QIYOSIY-SEMANTIK TAHLILI VA TARJIMA MUAMMOLARI

Allamuradova Dildora Saxadulla qizi

O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Email: dildoraallamuradova@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22804654

Annotatsiya: Tadqiqot italyan va o‘zbek tillari misolida tana a’zolari nomlari bilan bog‘liq turg‘un birikmalarning konseptual hamda tarjima jarayonini yoritishga qaratilgan. Tillarning turli tizimlarga mansubligiga qaramay, ulardagi metaforik tafakkurning o‘xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Lingvistik tahlillar orqali so‘zma-so‘z tarjimaning salbiy oqibatlarini ochib beriladi va madaniy kodlarni to‘g‘ri yetkazish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: somatik iboralar, madaniy konsept, tarjima strategiyasi, konnotatsiya, qiyosiy tilshunoslik

COMPARATIVE SEMANTIC ANALYSIS AND TRANSLATION CHALLENGES OF SOMATIC IDIOMS IN ITALIAN AND UZBEK.

Abstract: This study aims to shed light on the conceptual aspects and the translation process of fixed expressions related to body parts, using Italian and Uzbek as case studies. Despite the fact that these languages belong to different language families, the similarities and differences in their metaphorical thinking are examined through contrastive analysis. By means of linguistic analysis, the negative consequences of literal translation are revealed, and effective pathways for accurately conveying cultural codes are demonstrated.

Keywords: somatic idioms, cultural concept, translation strategy, connotation, contrastive linguistics

Kirish

Til – bu inson tafakkuri va madaniyatining asosiy ifoda vositasidir. Har bir til o‘ziga xos obrazli ifodalar tizimiga ega bo‘lib, ayniqsa frazeologizmlar orqali milliy dunyoqarash, mentalitet va qadriyatlar yorqin namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, somatik frazeologizmlar – ya’ni tana a’zolari nomlari ishtirok etgan turg‘un iboralar – tilshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular insonning jismoniy tajribasi orqali abstrakt tushunchalarni ifodalashga xizmat qiladi.

Italyan va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, har ikkala tilda ham somatik frazeologizmlar keng qo‘llaniladi. Bu iboralar ayrim hollarda to‘liq mos kelishi, ba’zan esa qisman farqlanishi yoki umuman muqobilsiz bo‘lishi mumkin. Aynan shu jihat ularni tarjima qilish jarayonini murakkab va qiziqarli qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – italyan tilidagi somatik frazeologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish usullarini tahlil qilish, ularning semantik va madaniy xususiyatlarini aniqlash hamda muqobillik darajasiga ko‘ra tasniflashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqotda italyan tilidagi somatik frazeologizmlar va ularning o‘zbekcha muqobillari qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida tana a’zolari ishtirok etgan italyan frazeologik birliklari tanlab olinib, ularning o‘zbek tilidagi semantik va funksional muqobillari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, semantik va lingvokulturologik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy metod yordamida italyan va o‘zbek tillaridagi somatik iboralarning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajasi baholandi. Semantik tahlil orqali frazeologizmlarning ko‘chma ma’nosi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari hamda kontekstual qo‘llanilishi o‘rganildi. Lingvokulturologik yondashuv esa iboralarda aks etgan milliy-madaniy tasavvurlarni aniqlashga xizmat qildi. Somatik frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi va madaniy tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy manbalarda ham ta’kidlanadi.

Tahlil uchun tanlangan frazeologik birliklar uch guruhga ajratildi:

1. o‘zbek tilida to‘liq yoki deyarli to‘liq muqobili mavjud iboralar;
2. ma’nosi o‘xshash, ammo boshqa somatik komponent orqali ifodalangan iboralar;
3. faqat izohlash yoki tasviriy tarjima orqali beriladigan frazeologizmlar.

Mazkur tasnif tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik va madaniy tafovutlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari, metaforik asoslari va pragmatik vazifalariga alohida e’tibor qaratildi. Somatik frazeologizmlarning tarjimasida ekvivalentlik, kontekst va madaniy moslik asosiy mezon sifatida olindi.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, italyan tilidagi somatik frazeologizmlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda ekvivalentlik darajasi turlicha namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklar semantik va lingvokulturologik jihatdan uch guruhga ajratildi: to‘liq ekvivalent iboralar, qisman mos keluvchi birliklar hamda tasviriy usulda tarjima qilinadigan frazeologizmlar. Zamonaviy frazeologiya tadqiqotlarida ham somatik iboralar milliy tafakkur va madaniy konseptlarni aks ettiruvchi birlik sifatida talqin qilinadi.

Birinchi guruhga kiruvchi iboralarda italyan va o‘zbek tillaridagi metaforik tasavvur deyarli bir xil ekanligi kuzatildi. Masalan, ***In punta di piedi*** iborasi o‘zbek tilidagi “oyoq uchida” birikmasiga to‘liq mos keladi. Har ikki tilda ham ushbu ibora ehtiyotkor, sekin va shovqinsiz harakatni ifodalaydi. Xuddi shuningdek, ***Chiudere gli occhi*** *su qualcosa* frazeologizmi “ko‘z yummoq” shaklida bevosita ekvivalentga ega bo‘lib, muayyan holatga ataylab e’tibor bermaslik ma’nosini bildiradi. ***Mordersi la lingua*** iborasi ham “tilini tishlamoq” tarzida tabiiy tarjima qilinadi. Bu holat inson tanasi bilan bog‘liq universal tajribalar turli xalqlarda o‘xshash obrazlarni yuzaga keltirishini ko‘rsatadi.

Ikkinchi guruhdagi frazeologik birliklarda esa semantik yaqinlik saqlangan bo‘lsa-da, obraz yaratishda turli komponentlardan foydalanilishi aniqlandi. Masalan, italyan tilidagi ***Non fare un colpo di ciglio*** iborasi so‘zma-so‘z tarjimada “kiprik ham qoqmaslik” ma’nosini beradi. Ammo o‘zbek tilida shu mazmun “pinagini buzmaslik” kabi boshqa obrazlar orqali ifodalanadi. Shuningdek, *Tener d’occhio* frazeologizmi “ko‘z bilan nazorat qilish” deb tarjima qilinsa-da,

o‘zbek tilida “ko‘z-quloq bo‘lib turmoq” shaklida qo‘llaniladi. Bu esa o‘zbek tilida kuzatish jarayonida nafaqat ko‘rish, balki eshitish elementi ham muhim konsept sifatida ishtirok etishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida semantik tafovutlar ayniqsa ***Avere le mani lunghe*** iborasida yaqqol kuzatildi. Italyan tilida ushbu birlik “o‘g‘rilikka moyil bo‘lish” ma’nosini anglatsa, o‘zbek tilidagi “qo‘li uzun” iborasi aksincha, imkoniyati keng yoki ta’sir doirasi katta shaxsga nisbatan ishlatiladi. Shu sababli mazkur iboraning adekvat tarjimasi “qo‘li egri” shaklida berilishi aniqlandi. Bu kabi holatlar tarjimada so‘zma-so‘z yondashuv semantik xatolarga olib kelishini ko‘rsatadi. Frazeologik birliklarning konnotativ ma’nosini saqlash tarjimaning asosiy mezonlaridan biri ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda ham qayd etilgan.

Uchinchi guruhga mansub iboralar esa o‘zbek tilida tayyor frazeologik muqobilga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Masalan, ***Avere le mani in pasta*** iborasi so‘zma-so‘z “qo‘li xamir ichida” deb tarjima qilinsa-da, haqiqiy ma’nosi “biror ishga aralashgan bo‘lish” yoki “hamma narsadan xabardor bo‘lish” tarzida izohlanadi. Xuddi shuningdek, ***Prendere in giro*** iborasi “ustidan kulmoq”, “masxara qilmoq” yoki “laqillatmoq” kabi tasviriy vositalar orqali ifodalanadi. Bunday birliklarda ekvivalent emas, balki funksional va pragmatik moslik muhim rol o‘ynashi aniqlandi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, somatik frazeologizmlar tarjimasida lingvistik omillar bilan bir qatorda madaniy tafakkur, milliy stereotip va metaforik tasvirlar ham muhim ahamiyatga ega. Italyan va o‘zbek tillaridagi ayrim iboralar umumiy xarakterga ega bo‘lsa, ayrimlari esa milliy-madaniy xususiyatlar sababli keskin farqlanadi. Shu bois somatik frazeologizmlarni tarjima qilishda kontekst, pragmatik ma’no va lingvokulturologik omillarni hisobga olish zarurdir.

Muhokama

Olingan natijalar somatik frazeologizmlar tarjimasida ekvivalentlik masalasi faqat lingvistik darajada emas, balki kognitiv va madaniy omillar bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatdi. Frazeologik birliklar tarkibidagi somatik komponentlar insonning jismoniy tajribasiga tayangan holda shakllansa-da, ularning konseptual talqini har bir til va madaniyatda o‘ziga xos tarzda rivojlanadi. Shu sababli tarjima jarayonida formal moslikdan ko‘ra semantik va pragmatik moslik ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan materiallar asosida aniqlanishicha, to‘liq ekvivalentlik kuzatilgan iboralar (masalan, In punta di piedi, Chiudere gli occhi su qualcosa, Mordersi la lingua) universallikka asoslangan metaforik modellarning mavjudligini tasdiqlaydi. Bu holat kognitiv lingvistika doirasida ishlab chiqilgan “tana orqali konseptuallashtirish” (embodiment) nazariyasi bilan izohlanadi. Ya’ni, inson organizmi bilan bog‘liq tajribalar turli tillarda o‘xshash obrazlarni yuzaga keltiradi va bu tarjimada bevosita ekvivalentlikni ta’minlaydi.

Biroq ikkinchi guruhdagi iboralar (masalan, *Non fare un colpo di ciglio*, *Tener d’occhio*) tahlili shuni ko‘rsatadiki, semantik yadroning saqlanishiga qaramay, obraz tanlashda madaniy tafovutlar yuzaga keladi. Bu holat frazeologik tizimlarning milliy xususiyatlari bilan izohlanadi. Masalan, italyan tilida “ko‘z” markaziy kuzatuv organi sifatida yetarli bo‘lsa, o‘zbek tilida “ko‘z-quloq” kombinatsiyasi orqali idrokning kengroq modeli aks ettiriladi. Rus va ingliz tilshunosligida ham frazeologik birliklarning bunday variativligi milliy-madaniy stereotiplar bilan bog‘liqligi qayd etilgan.

Eng murakkab holatlar uchinchi guruhda – muqobili mavjud bo‘lmagan iboralarda kuzatildi. *Avere le mani in pasta* yoki *Prendere in giro* kabi birliklar semantik jihatdan boshqa tilga to‘liq ko‘chirilmaydi, chunki ular ma’lum bir madaniy kontekst va pragmatik vaziyatga bog‘langan. Shu bois ularni tarjima qilishda izohlash, parapraz yoki funksional ekvivalent tanlash zarurati yuzaga keladi. Bu yondashuv Nida tomonidan taklif etilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasiga mos keladi, ya’ni tarjimada asosiy maqsad – qabul qiluvchi til auditoriyasida o‘xshash ta’sirni yuzaga keltirishdir.

Bundan tashqari, tashqi shakli o‘xshash iboralar har doim ham semantik jihatdan mos kelavermaydi. *Avere le mani lunghe* iborasi bunga yaqqol misol bo‘lib, noto‘g‘ri talqin qilinganda tarjimada semantik buzilish yuzaga keladi. Bu esa frazeologik birliklarni tarjima qilishda “yolg‘on do‘stlar” (false friends) muammosi mavjudligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, natijalar somatik frazeologizmlar tarjimasida lingvokulturologik kompetensiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tarjimon nafaqat til tizimini, balki iboraning qo‘llanish konteksti, emotsional bo‘yoqdorligi va pragmatik vazifasini ham hisobga olishi zarur. Zamonaviy tadqiqotlarda ham frazeologik birliklar madaniy kodlarni uzatuvchi vosita sifatida talqin qilinadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot italyan va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning tarjima jarayonidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar frazeologik birliklarning ekvivalentligi turli darajalarda namoyon bo‘lishini: ayrim iboralar to‘liq mos keladi, boshqalari semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, turli obrazlar orqali ifodalanishini, yana bir qismi esa faqat izohli yoki funksional tarjima orqali berilishini ko‘rsatdi.

Somatik frazeologizmlar insonning jismoniy tajribasiga asoslangan bo‘lsa-da, ularning til va madaniyatda aks etishi milliy tafakkur bilan chambarchas bog‘liqligi tasdiqlandi. Shu sababli tarjimada formal o‘xshashlik har doim ham to‘g‘ri natija bermaydi. Ayniqsa, tashqi shakli o‘xshash, ammo ma’nosi farqli iboralar noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkinligi aniqlanib, bunday holatlarda ehtiyotkorlik zarurligi ta’kidlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin: somatik frazeologizmlarni tarjima qilishda asosiy e’tibor iboraning kontekstual ma’nosi, pragmatik vazifasi va madaniy yuklamasiga qaratilishi lozim. Tarjimon tomonidan sun’iy yoki uydirma muqobillar yaratish emas, balki mavjud lingvistik resurslar va funksional ekvivalentlardan foydalanish ustuvor bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot frazeologik birliklarni tarjima qilishda lingvistik va lingvokulturologik yondashuvlarning uyg‘unligi zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa nafaqat tarjima sifatini oshiradi, balki tillararo madaniy muloqotni yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781315619187
2. Cowie, A. P. (Ed.). (1998). *Phraseology: Theory, analysis, and applications*. Oxford University Press.
3. Dobrovol’skij, D., & Piirainen, E. (2005). *Figurative language: Cross-cultural and cross-linguistic perspectives*. Elsevier.

4. Fernando, C. (1996). *Idioms and idiomaticity*. Oxford University Press.
5. Kosz, A. (2005). Occhio all'italiana – cioè il ruolo dell'occhio nell'immagine linguistica del mondo italiano. *Neophilologica*, (17), 177–186.
6. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A practical introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.
7. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
8. Makkai, A. (1972). *Idiom structure in English*. Mouton.
9. Nida, E. A. (1964). *Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating*. E. J. Brill.
10. Телия, В. N. (1996). *Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты* [Russian phraseology: Semantic, pragmatic and linguoculturological aspects]. Школа "Языки русской культуры".
11. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative stylistics of French and English: A methodology for translation* (J. C. Sager & M.-J. Hamel, Trans.). John Benjamins Publishing Company. https://doi.org/10.1075/btl.11